

Tojikistonlik mutaxassislar ma'ruzalari

2019 yil 19-21 yanvar kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish" tarmoq markazida "Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish" yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilariga Tojikiston Fanlar Akademiyasi, "Suv muammolari, gidroenergetika va ekologiya" institutining "Suv resurslari va gidrofizik jarayonlar" laboratoriyasi mudiri, t.f.d. professor Fazyllov Ali Raxmatdjanovich "Butun dunyoda chuchuk suv muammolari va ekologiya" mavzusida Tojikiston Agrar universiteti "Gidromelioratsiya" fakultetining "Qurilish mexanikasi va gidrotexnika inshootlari" kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent Ikromov Ilxomjon Islomkulovich "Zamonaviy gidrotexnika inshootlari va ulardan foydalanish" mavzusida, Tojikiston Agrar universiteti "Gidromelioratsiya" fakultetining "Gidromelioratsiya, rekultivatsiya va yerlarni muhofaza qilish" kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent Pulatov Shavkat Yarashovich "Zamonaviy gidromelioratsiya va yerlarni muhofaza qilish" mavzularida ma'ruzalar, seminar-trening mashg'ulotlari olib bordilar.

Shuningdek, o'tkazilgan ma'ruzalar va seminar-trening mashg'ulotlarida Tojikiston Agrar universitetining "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani, t.f.n., Mirzoyev Mirasil Maxmadnazarovich, Tojikiston Agrar universiteti "Gidromelioratsiya" fakultetining "Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent Bobiyev Davlatali Fayzaliyevichlar ham o'z mulohazalari bilan qatnashishdi.



PKQT va UMO tarmoq markazi bo'lim boshlig'i Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov